



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 10-yanvar

14-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 8-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida” 2024-yil 27-dekabrda PQ–462-son qarori ijrosi haqida” 5-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 8-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida” 2024-yil 27-dekabrda PQ–462-son qarori ijrosi haqida” 5-6-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 8-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida” 2024-yil 27-dekabrda PQ–462-son qarori ijrosi haqida” 5-6-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–462-son qarori bilan:

Madaniyat vazirligi, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi, Yozuvchilar uyushmasi, Fanlar akademiyasi, Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi, Yoshlar ishlari agentligi hamda jamoatchilik vakillarining 2025-yilda Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to‘g‘risidagi takliflari ma‘qullanganligi;

Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini nishonlash bo‘yicha tashkiliy qo‘mita (keyingi o‘rinlarda -Tashkiliy qo‘mita) ilovaga muvofiq tarkibda tuzilganligi;

Tashkiliy qo‘mita (A.Aripov) ikki hafta muddatda Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini nishonlash bo‘yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturini tasdiqlashi;

Ushbu dasturda quyidagi masalalarga alohida e‘tibor qaratilishi;

mutafakkir adibning “Tanlangan asarlar” to‘plami, uning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan ilmiy-ommabop kitoblarni nashrga tayyorlash va chop etishi;

Mahmudxo‘ja Behbudiy haqida spektakllar sahnalashtirish hamda bugungi kunga qadar yaratilgan “Mahmudxo‘ja Behbudiy” kinoseriali va “Xalq yuragi” badiiypublitsistik filmlarining ommaviy namoyishlarini tashkil qilishi;

Badiiy akademiyaning Markaziy ko‘rgazmalar zalida Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va ijodi, shuningdek, Turkiston jadidlik harakati namoyandalarining faoliyatiga oid tasviriy san‘at asarlari ko‘rgazmasini uyushtirishi;

umumiy oʻrta taʼlim muassasalari, ijod maktablari oʻquvchilari, “Temurbeklar maktablari” kursantlari hamda oliy taʼlim muassasalari talabalari oʻrtasida “Mahmudxoʻja Behbudiy saboqlari” mavzusida insholar tanlovini oʻtkazish va

gʻoliblarni munosib taqdirlashi;

barcha boʻgʻindagi taʼlim muassasalari, kutubxonalar, mehnat jamoalari, mahallalar va harbiy qismlarda taniqli olimlar va adiblar ishtirokida Mahmudxoʻja Behbudiy hayoti va ijodiga bagʻishlangan ijodiy uchrashuvlar, adabiyot va kitobxonlik kechalarini tashkil qilishi;

zamonaviy raqamli va targʻibot texnologiyalari asosida Mahmudxoʻja Behbudiy asarlarini yoshlar oʻrtasida keng ommalashtirishi;

2025-yil oktabr oyida Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida “Mahmudxoʻja Behbudiy merosi va jadidlik harakatini oʻrganishning dolzarb masalalari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tashkil qilishi;

2025-yil noyabr oyida Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston davlat akademik katta teatrida Mahmudxoʻja Behbudiy tavalludining 150 yilligiga bagʻishlangan tantanali adabiy-maʼrifiy xotira kechasini oʻtkazishi;

Samarqand shahridagi Mahmudxoʻja Behbudiy uy-muzeyi hududini obodonlashtirish hamda muzey ekspozitsiyasini boyitishi;

Qarshi shahridagi koʻchalardan biriga Mahmudxoʻja Behbudiy nomini berish hamda unga bagʻishlangan yodgorlik lavhasini oʻrnatishi;

Internet va ijtimoiy tarmoqlar uchun moʻljallangan audiovizual asarlar yaratish, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida turkum materiallarni eʼlon qilishi;

Tashkiliy qoʻmitaga Mahmudxoʻja Behbudiy tavalludining 150 yilligini nishonlash doirasida oʻtkaziladigan tadbirlarni yuksak saviyada uyushtirish, mazkur qarorga asosan belgilangan chora-tadbirlarning oʻz vaqtida, sifatli va toʻliq amalga oshirilishini muvofiqlashtirib borish vazifalari yuklatilganligi;

belgilanishicha, mazkur qarorda nazarda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bilan bogʻliq, xarajatlar tashkilotchilarga Davlat budgetidan ajratilgan mablagʻlar doirasida, ularning budgetdan tashqari mablagʻlari hamda qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirilishi maʼlumot uchun qabul qilinsin.

3. Mingbuloq tuman hokimligining axborot xizmati (Sh.KenjayeV) ommaviy axborot vositalariga Mahmudxoʻja Behbudiy tavalludining 150 yilligini nishonlash bilan bogʻliq tadbirlarni keng yoritish ishlarini tashkil etsin.

4. Respublika maʼnaviyat va maʼrifat markazi tuman boʻlimi (D.Jurabayeva), Madaniyat boʻlimi (R.Xoliqova) manfaatdor boʻlim va idoralar bilan birgalikda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-dekabrda PQ-462-son qarori talablari asosida ish tashkil etsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va maʼnaviy-maʼrifiy ishlar boʻyicha oʻrinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov